



“QUTADG‘U BILIG” DURDONA ASARDIR.

Jaloliddin Aliqulovich BO‘RIYEV

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

“ZIYO-ZUKKO UMUMTA‘LIM MAKTAB”

Arab tili fani o‘qituvchisi

telefon: +99891 320 85 45

E-mail: jburievq11@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yusuf Xos Hojib o‘z davrining ilg‘or ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-axloqiy masalalari, turkiy xalqlar tarixi, madaniyati, ilm-fani, urf-odat, an‘analari, turmush tarzi va qadriyatlari haqida “Qutadg‘u bilig”da keltirgan fikrlari bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: ilm-ma‘rifat, ta‘lim-tarbiya, qadriyat, axloq-odob, qanoat, hukmdor, amaldor.

“Qutadg‘u bilig” (“Saodatga eltuvchi bilim”) - Yusuf Xos Hojibning ushbu asari turkiy adabiyotning nodir namunasi bo‘lib, 1069-70-yillarda yaratilgan. Muallif asarning muqaddimasida xabar berishicha, bu kitob o‘z davridayoq keng tarqalib, mashhur bo‘lgan. Chin (Shimoliy xitoy)liklar uni “Adab ul-muluk” (“Hukmdorlar odobi”), mochin (Janubiy xitoy)liklar “Oyin ul-mamlakat” (“Hukmdorlik qonun-qoidalar”), Sharqiy xitoyliklar “Ziynat ulumaro” (“Hukmdorlar ziynati”), eronliklar “Shohnoma”i turkiy (“Turkiy “Shohnoma”), ba‘zilar “Pandnomai muluk” (“Hukmdorlar pandnomasi”), turonliklar esa “Qutadg‘u bilig” deb ataganlar. Asar islomiy turkiy adabiyotni boshlabgina bermay, uni yangi taraqqiyot bosqichiga ham ko‘targan. U nafaqat turkiy xalqlar adabiyoti an‘analari, balki qardosh xalqlar, jumladan, forsiy adabiyot tajribalarini ham ijodiy o‘zlashtirgan holda yaratilgan.

“Qutadg‘u bilig” — XI asr so‘z san‘atining nodir namunasi bo‘lib, unda o‘z davrining ilg‘or ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-axloqiy masalalari badiiy talqin qilingan,



turkiy xalqlar tarixi, madaniyati, ilm-fani, urf-odat va an'analari, turmush tarzi, qadriyatlarini xususida batafsil ma'lumot berilgan.

Adib "Qutadg'u bilig" dostonini yaratar ekan, o'z oldiga qoraxoniylar davlati hokimiyatini mustahkamlash, Tavg'achxon bilan Eloqxonlar o'rtasidagi ixtiloflarni bartaraf etish, hukmron doiralarning turli ijtimoiy tabaqalarga munosabatini belgilash, ma'rifat va obodonchilik uchun kurash, yaxshi xulq-odobni targ'ib qilish kabi maqsadlarni qo'ygan. Bu bilan Yusuf Xos Hojib o'z davrining yirik ma'rifatparvari va donishmandi sifatida gavdalanadi.

"Qutadg'u bilig" asarining markaziga to'rt masala qo'yilib, ular to'rt obraz vositasida ochib berilgan: birinchisi-adolat bo'lib, u podshoh Kuntug'di timsolida, ikkinchisi — davlat bo'lib, vazir Oyto'ldi, uchinchisi — aql bo'lib, vazirning o'g'li O'gdulmish, to'rtinchisi — qanoat bo'lib, uning qarindoshi O'zg'urmish qiyofasida tasvirlanadi. Shunga muvofiq ravishda qo'yilgan masalalar voqealar rivoji, qahramonlarning o'zaro suhbatlari, bahs-munozarasi, savol-javoblari, pand-nasihatlari vositasida hal qilinadi. Muallif bahsli masalalar yuzasidan ham axloq-odob, ilm, insoniylik va adolat doirasida fikr yuritadi hamda podshoh va amaldorlardan tortib dehqonu hunarmandgacha — jamiyatdagi barcha toifalarning huquq va burchlari haqida o'z mulohazalarini bildiradi.

"Qutadg'u bilig" qoraxoniylar hokimiyatining o'ziga xos nazmiy nizomnomasi bo'lib, bu ramziy-timsoliy asar yurt egalari bo'lmish hukmdorlar va katta-kichik amaldorlarga atab yozilgan va asarda ularga mamlakatni adolat bilan boshqarish, tinchlikni saqlash, raiyatga zulm qilmaslik, bil'aks, xalqning og'irini yengil qilish, turmushini farovon aylash, jamiyatning ma'naviy-axloqiy negizlarini mustahkamlash, ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiyaga keng e'tibor berish, iste'dod sohiblarini qo'llab-quvvatlash, huquq, burch, adolat bo'yicha maslahat va tavsiyalar berilgan. Hukmdorlar adabnomasi — "Qutadg'u bilig" qoraxoniylar sulolasi misolida turkiy davlatchilik asoslari yangi bosqichga ko'tarilgan davrda zamon kun tartibiga qo'ygan siyosiy-ijtimoiy masalalarni hal qilishda asosiy dastur bo'lgan. Shoirning u yoki bu masala



bo'yicha pand-nasihatlari xuddi hikmatday jaranglaydi, xalq maqollariga o'xshab ketadi, ularning badiiy yuksakligi va ma'rifiy ahamiyati ham shunda.

“Qutadg‘u bilig” dostoni badiiy jihatdan juda yuqori, hali hanuz o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan asardir. Asarning o‘ziga xos jihati, dostonda voqealar tasviri deyarli yo‘q, ya’ni muallif qiziqarli bir voqeani hikoya qilib berishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ymaydi. Yuqorida zikr qilganimizdek, asarning qahramonlari Kuntug‘di, Oyto‘ldi, O‘gdulmish va O‘zg‘urmishdir. Doston markazida Kuntug‘di timsoli turadi. Aslida Kuntug‘di – chiqqan kun, yangi kun degan ma’nomlarni anglatadi. Shoirning doston markaziga Kuntug‘di timsolini qo‘yishi o‘rinlidir. Chunki, “Kuntug‘di” dostonda adolatni ifoda etadi. Bu yerda adolat kun yoki quyoshga o‘xshatilyapti. Hayotning manbai quyoshdir. Quyosh bo‘lmasa, hayot bo‘lmaganiday, adolat bo‘lmasa, jamiyatda insonlar yashay olmaydi. Oyto‘ldi-Davlat, Baxt, Omad timsoli. “Oyto‘ldi” aslida to‘lgan oy demakdir. Bu yerda ham chuqur ma’no bor. Oy to‘ladi, kamayadi, shu jihatlari bilan davlat boylikka o‘xshaydi: davlat kengayadi-torayadi, boylik ko‘payadi-ozayadi. Dostondagi uchinchi timsolga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, u aql va bilim ramzidir. Agar Boylik, Baxt, Omad o‘tkinchi bo‘lsa, kishi qo‘lida doimiy turmasa, Aql va Bilim ularning o‘rnini bosa olmaydi. Shoir doston markaziga Aql va Bilim timsolini qo‘ymagan bo‘lsa-da, ushbu asarini “Qutadg‘u bilig” - “Saodatga eltuvchi bilim” deb nomladi.

Balasog‘undan Bag‘dodgacha turkiy sulolalar hukm surgan davrda sulolalar tarixi emas, davlat boshqarish odobi muhim edi. Asarning yana boshqa shuhrat topgan nomlari “Adab ul-Muluk” (“Hukmdorlar odobi”) va “Oyin ul-mamlakat” (“Mamlakatni idora etish qoidalari”) xuddi shu jihatni aks ettiradi.

Turkiy sulolalar butun islom mintaqasida hukmronlikni o‘z qo‘liga olayotgan bir paytda, ijtimoiy jihatdan “Shohnoma”dan ko‘ra “Qutadg‘u bilig”, ya’ni “hukmdorlar Adabnomasi” ko‘proq zarur va bu kitob aynan turkiy tilda yozilmog‘i kerak edi. Adib ushbu ijtimoiy zaruratni vaqtida anglab yetdi, unga yuksak saviyada javob bera oldi.



Yusuf Xos Hojib jamiyatni tubdan o'zgartirishni emas, muvofiqlashtirish, uyg'unlashtirish, takomil baxsh etishni maqsad qilib qo'yadi. Chunki XI asr islom jamiyatining shakllanib, yuksalib kelayotgan davri bo'lib, unda takomillashtirish takliflari o'rinli edi.

“Qutadg‘u bilig”ning badiiyligi juda yuqori. Undagi har bir qirra, voqealardagi hayotiylik va shoir xayoli o‘zaro nihoyatda uyg‘un. Shoirning tasvirlari yorqin, tili nihoyatda shirali, mazmunga boy. Uning juda ko‘p baytlari xikmatli so‘z (aforizm) darajasiga ko‘tarilgan. Har bir bayt tugal tasvir beradi.

Xullas, turkiy tilda yaratilgan bu buyuk asar mintaqa adabiyoti rivojining birinchi bosqichi uchun ma'lum ma'noda yakunlovchi asar bo'ldi. Bu bosqichning o'ziga xos ikki jihatini qayd etib o'tmoq kerak.

Birinchi, bu davrda ilm-fan va yozma badiiy adabiyot, asosan, turli hukmdorlar saroyi qoshida, ular homiyligida rivoj olib, gullab-yashnadi. Agar Abbosiy xalifalar saroyida arab tilidagi she'riyat, Somoniy va G'aznaviyalar huzurida fors tilidagi adabiyot rivoj topgan bo'lsa, Qoraxoniylar dargohida turkiy she'riyatning buyuk namunasi dunyoga keldi.

Ikkinchi, bu adabiyotning o'ziga xos tomoni ma'rifatchilik edi. Nafaqat adabiyot, balki bu davrning butun ma'naviyatida yetakchi ruhni aqlga tayanish, bilimga chorlash, ijtimoiy adolat, marg'ub axloqni aql, zakovat kuchi bilan o'rnatishga ishonch tashkil qilar edi. Bu adabiyot birinchi navbatda hukmdor tabaqaga, beklar, zodagonlarga mo'ljallangan va o'shalarga to'g'ri yo'lni ko'rsatishni maqsad qilgan edi.

“Qutadg‘u bilik”dan baytlar

* * *

Bilimni buyuk, o'quvni ulug' bil,

Bu ikkisi tanlangan bandasini ulug'laydi.

Zakovat qayerda bo'lsa, ulug'lik bo'ladi,

Bilim kimda bo'lsa buyuklik oladi.



* * *

*O'g'il-qizga bilim, hunar o'rgatish kerak,
Toki bu hunarlar bilan fe'l-atvori go'zal bo'lsin.
Kimning xulq-atvori, fe'li yaxshi bo'lsa,
U tilagini topadi, oyu kun unga kulib boqadi.*

* * *

*Bilimsiz, shubhasiz, aniq ko'rdir,
Kel, ey nodon, bilimdan hissa ol.
Zakovatli uqadi, bilimli biladi,
Bilimli, zakovatli tilakka yetadi.*

* * *

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. A.Yoqubov. "Qutadg'u bilig"da davlatchilik konsepsiyasi. Toshkent. "A.Qodiriy", 1997.
2. S.Erkinov. O'zbek adabiyoti tarixi,1-tom. Toshkent,1977.
3. Yusuf Xos Hojib, "Qutadg'u bilig" Toshkent, 2015. (F.Ravshanov tarjimasi)
4. Yusuf Xos Hojib, "Qutadg'u bilig". Toshkent, "Fan", 1971.(Q.Karimov tabdili).